

SAMARQAND VILOYATI IJTIMOIIY SOHALARI RIVOJINING DINAMIK VA TARKIBIY TAHLILI.

O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'gli

“Iqtisodiy tahlil va statistika” kafedrası o'qituvchisi.

E-mail: firdavs26031995@gmail.com

Ziyodova Rayhona Jasur qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, “Iqtisodiyot” fakulteti talabasi.

E-mail: rayhonaziyodova546@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand viloyatining ijtimoiy sohasi bo'lmish: Oliy ta'lim yo'nalishi bo'yicha 2021, 2022, 2023-yillardagi o'zgarishlar: o'sish sur'atlari, talaba va professor o'qituvchilar soni va ulushlari diagramma, jadval va grafiklar orqali to'liq yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy soha, oliy ta'lim, talabalar soni, professor o'qituvchilar soni.

Kirish. Bugungi kunda mamlakar iqtisodiyoti ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishning yangi bosqichiga chiqib bormoqda, chunkilib borilayotgan islohatlarning bosh maqsadi: O'zbekiston Respublikasini har tomonlama, ya'ni ham iqtisodiy, ham ijtimoiy jihatdan barqaror rivojlanishini ta'minlash, jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoridan joy olish hisoblanadi. “O'zbekiston boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.”¹ Konstitutsiyamizning ushbu moddasidan ham ijtimoiy soha har bir davlat uchun naqadar muhim va zarur ekanligini fahmlashimiz mumkin, yohud hech bir davlat ijtimoiy sohani rivojlantirmasdan turib, o'z iqtisodiyotini barqaror rivojlanish darajasiga olib chiqa olmaydi.

Tahlil va natijalar:


Oliy ta'lim tashkilotlar soni			
<i>(o'quv yili boshiga, birlik)</i>			
	2021/ 2022	2022/ 2023	2023/ 2024
Samarqand viloyati	14	14	15
Samarqand sh.	11	11	11
Kattaqo'rg'on sh.	1	1	1
Oqdaryo	1	1	1
Payariq	1	1	1
Urgut	-	-	1 ²

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasi

² <https://samstat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>


1-jadval

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Samarqand viloyatida 2021-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda ijtimoiy sohaning bir yo'nalishi bo'lmish oliy ta'lim tashkilotlari sonining statistik tahlilini ko'rib chiqamiz.



1-diagramma

Ushbu diagramma bo'yicha biz Samarqand viloyatida 2021/2022 yillarda Oliy ta'lim muassasalari soni 14 taga tengligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu ko'rsatkich 2022/2023 yillarda o'zgarmagan. Biroq 2023/2024 yilga kelib esa bu ko'rsatkich 15 tani tashkil qilgan.



2-diagramma

Ushbu statistik ma'lumotlarga ko'ra, Samarqand shahridagi oliy ta'lim tashkilotlari soni viloyatdagi eng katta ulushni o'z ichiga oladi. Bu ko'rsatkich 78.5 % ga yoki 11 taga tengligini ko'rishimiz mumkin. Ayni shu vaqtda, Oqdaryo, Payariq tumanlari va

Kattaqo'rg'on shahrida ushbu ko'rsatkich ulushi bir xil ekanligini, ya'ni 7.1% ga yoki har birida 1 tadan ekanligini ko'rishimiz mumkin.

(Quyidagi ko'rsatkichlarni hisoblashda tarkibiy nisbat formulasidan foydalanildi:)


$$T = \frac{n}{\sum n}$$

Bu yerda:

n - to'plam qismi

$\sum n$ - to'plam elementlari yig'indisi

Keyingi davrda, ya'ni 2022/2023-yillarda oliy ta'lim tashkilotlari soni 2021/2022-yillarda tashkilotlar soni bilan bir xil ekanligini ya'ni o'zgarmaganligini ko'rishimiz mumkin.



3-diagramma



4-diagramma

Quyidagi diagrammada Urgut tumani 6.6% ulush bilan tarkibga qo'shilganligi uchun Samarqand shahridagi oliy ta'lim tashkilotlari ulushi oldingi yillarga nisbatan 78.5 % dan 73.3%ga o'zgarganini yoki 5.2 %ga kamayganini ko'rishimiz mumkin. Oqdaryo, Payariq

tumanlari va Kattaq'org'on shahridagi muassasalar ulushi esa 7.1%dan 6.6%ga o'zgardi yoki 0.5 % kamaydi.

Talabalar soni			
<i>(o'quv yili boshiga, kishi)</i>			
	2021/ 2022	2022/ 2023	2023/ 2024
Samarqand viloyati	70772	67650	90588
Samarqand sh.	69218	66248	85776
Kattaq'org'on sh.	716	716	2048
Oqdaryo	806	654	1652
Payariq	32	32	52
Urgut	-	-	1060

2-jadval

Ushbu jadvalda 2021-yildan 2024-yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida oliy ta'lim muassasalarida tahsil olgan talabalar soni statistikasini ko'rishimiz mumkin.



5-diagramma

Diagramma bo'yicha gapiradigan bo'lsak uncha ham katta o'zgarish yo'qdek ko'rinishi mumkin, lekin sonlar buni aksini ko'rsatayapti.



6-diagramma

Ma'lumotlarga ko'ra 2021/2022 o'quv yilida Samarqand viloyatidagi talabalar soni 70772 nafarni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkichning 97.8 % ini Samarqand shahri talabalari egallab turibti. Shu bilan birga, Kattaqo'rg'on shahri talabalari ulushi 1% ga, Oqdaryo tumani talabalari ulushi 1.1%ga, Payariq tumani talabalari ulushi esa o'z navbatida 0.05% ga tengligini ko'rishimiz mumkin.



7-diagramma

Bunda viloyatdagi umumiy talabalar soni 67650 nafarga tengligini ko'rishimiz mumkin. 2022/2023 o'quv qilidagi Samarqand shahri talabalari soni 66248 nafar ekanligini va bu umumiy talabalar sonining 97.9%ini tashkil etishini, Kattaqo'rg'on shahrida esa bu ko'rsatkich o'tgan yil ko'rsatkichi bilan bir ekanligini ya'ni o'zgarmaganligini, Oqdaryo tumani talabalari 654 nafar ko'rsatkich bilan umumiy talabalar sonining 0.96% ini tashkil qilishini, Payariq tumanida esa talabalar soni 32 nafar bilan umumiy ko'rsatkichning 0.05 %ni tashkil qilganini ko'rishimiz mumkin.

2022/2023 o'quv yilidagi talabalar soni ko'rsatkichlarini 2021/2022 o'quv yillaridagi talabalar soni bilan o'zaro bazisli va zanjirli usulda tahlil qilib o'tamiz. Ko'rsatkichlarga to'xtaladigan bo'lsak, viloyatdagi 2022/2023 o'quv yili talabalari soni 2021/2022 o'quv yilidagi talabalar soniga nisbatan 95.6% ga o'zgarganini, 4.4 %ga kamayganini yoki 3122 nafarga qisqarganini ko'rishimiz mumkin.


(Quyidagi ko'rsatkichlarni hisoblashda tarkibiy nisbat formulasidan foydalanildi:)

Bazisli usul formulasi

$$D = \frac{D_i}{D_0} * 100\%$$

Zanjirli usul formulasi

$$D = \frac{D_i}{D_{i-1}} * 100\%$$



8-diagramma


Diagrammaga asosan, 2023/2024 o'quv yilida viloyatning umumiy talabalari soni 90588 nafar ekanligini aytib o'tamiz. Bu natija 2022/2023 o'quv yiliga nisbatan 133.9 % ga o'zgargan, 33.9% ga oshgan yoki 22938 nafarga ko'paygan bo'lsa, 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan bu natija 127.9 % ga o'zgarganini, 27.9% ga oshganini yoki 19816 nafarga ko'payganini ko'rishimiz mumkin. . Bunda Samarqand shahri talabalari soni 85776 nafar

ekanligini va bu natija umumiy talabalar sonining 94.7% ini tashkil qilishini faxmlash mumkin.

Professor-o'qituvchi xodimlar soni, kishi			
<i>(o'quv yili boshiga, o'rindoshlarsiz)</i>			
	2021/ 2022	2022/ 2023	2023/ 2024
Samarqand viloyati	3849	3849	3812
Samarqand sh.	3766	3766	3547
Kattaqo'rg'on sh.	32	32	63
Oqdaryo	45	45	149
Payariq	6	6	11
Urgut	-	-	42

3-jadval

Tahlil qilinayotgan yillar davomida ish faoliyatini olib borgan Professor-o'qituvchi xodimlar soni bo'yicha statistik ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz.



Samarqand viloyati	Yillar
3849	2021/ 2022
3849	2022/ 2023
3812	2023/ 2024

9-diagramma

4-jadval Biz ushbu diagramma va jadvaldan shuni bilishimiz mumkinki, 2021/2022 va 2022/2023 o'quv yillari davomida professor o'qituvchilar soni bir xil miqdorda bo'lgan (3849 nafar bo'lgan). 2023/2024 o'quv yili davomida talabalar soni kamayganligi tufayli professor o'qituvchilar soni ham kamaydi, lekin sezilarli darajada emas, ya'ni 2023-2024 o'quv yilida professorlar soni 3812 nafarni tashkil qildi. Natijada o'tgan yillarga nisbatan

99.03 %ga o'zgarganini , 0.97 %ga kamayganini yoki 37 nafarga qisqarganini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa.

Samarqandda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha ko'plab tashabbuslar mavjud. Yangi maktablar va ta'lim markazlari ochilishi, o'qituvchilarni malakasini oshirishga qaratilgan dasturlar ta'lim sifatini yaxshilab, yoshlarning bilim darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu jarayonlar aholi hayotini yaxshilash, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va viloyatning kelajakdagi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy sohalarning rivoji davom etishi, aholi farovonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega, zero ijtimoiy sohani rivojlantirmasdan turib, iqtisodiy barqarorlikka erishib bo'lmaydi. Samarqand viloyatida oliy ta'limni rivojlantirish yo'nalishlariga to'xtaladigan bo'lsak: **Ta'lim sifatini oshirish**; oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish maqsadida zamonaviy o'quv dasturlari va metodikalar joriy etilishi, **infratuzilmani rivojlantirish**; oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi auditoriyalar, laboratoriya va kutubxonalar qurish orqali ta'lim muassasalarining infratuzilmasini yangilash, **xalqaro hamkorlik**; xalqaro ta'lim muassasalari bilan hamkorlik o'rnatish, talabalarga chet elda ta'lim olish imkoniyatlarini taqdim qilish va professor o'qituvchilarni xalqaro konferensiyalarda ishtirok etishini rag'batlantirish orqali oliy ta'limni rivojlantirishdagi harakatlarini keltirishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://samstat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi